

# **Boysunda qiymati 7 mlrd so'mlik zamonaviy klinika ishga tushirilmoqda**



Boysun tumani “Obi” mahallasida “Imomqulov Adhamjon” MChJ tomonidan davolash, diagnostika va laboratoriya xizmatlarini o’z ichiga olgan zamonaviy klinika bunyod etilgan. Hozirda loyiha qiymati 7 mlrd so’m bo’lgan klinikani jihozlash, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar o’rnatish ishlari olib borilmoqda.

Viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov mazkur klinikada olib borilayotgan ishlar, yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishdi. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko’rsatish maqsadida malakali mutaxassislar faoliyatini yo’lga qo’yish bo’yicha tavsiya va ko’rsatmalar berildi.

Klinika joriy yil 4-choragida ish boshlashi rejalashtirilgan bo’lib, yiliga 3 ming nafar qatnovchiga xizmat ko’rsatadi va 30 ta yangi ish o’rnlari yaratiladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)